UO‘K 94 (575.1)

JADID SAID AHRORIY VA “IZCHI”LAR TO‘DASINING FAOLIYATI VA TAQDIRI

O‘.Q. Ubaydullayev

Maqolada jadid Said Ahroriy va “Izchi”lar to‘dasi faoliyati birlamchi arxiv hujjatlari asosida o‘rganilgan. Said Ahroriyning Istanbuldan Toshkentga kelishi tafsilotlari, “Vatan” nomli jadid maktabi, “Izchi”lar to‘dasini tashkil etishi, Turkiston xalqining milliy mustaqillikka erishishi yo‘lida faol tashkilotchi, mohir pedagog, muharrir, elchi, dramaturg, shoir va yozuvchi sifatidagi faoliyati izchil yoritib berilgan. “Milliy istiqlol” uyushmasi a’zosi sifatida ayblanib, qatag‘on qilingani ochiqlangan. Shuningdek, Said Ahroriyning qizi – taniqli tarjimon, jurnalist Xolida Ahrorovaning istiqlol fidoyilari faoliyatini o‘rganishga doir tadqiqotlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *jadid, Said Ahroriy, ma’rifatparvar, ziyolilar, siyosat, mafkura, “Milliy ittihod”, “Milliy istiqlol”, “Izchi”, tashkilotlar, milliy muxolifat.*

В статье, опираясь на первичные архивные документы, изучается деятельность и судьба джадида Саида Ахрари и группы «Изчи». Освещается деятельность Саида Ахрари как активного борца за независимость Туркетана, как педагога, редактора, посла, драматурга, поэта и писателя. Выявлено, что он был обвинен и репрессирован как член организации «Миллий истиқлол» («Национальная независимость»). Также в статье приводятся сведения об исследованиях дочери Саида Ахрари, известной переводчицы и журналистки Халиды Ахраровой, о деятельности борцов за независимость.

Ключевые слова: *джадид, Саид Ахрари, просветитель, интеллектуал, политика, идеология, «Миллий иттиход», «Миллий истиклол», “Изчи”, организации, национальная оппозиция.*

Kirish

O‘zbekistonda milliy taraqqiyparvarlar – jadidlar faoliyatini o‘rganish, ular nomini abadiylashtirish, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, ilmiy xulosalar chiqarish borasida izchil izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-270-son qarori (2024-yil 19-iyul) [1] bu borada hali yana ko‘plab va keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirish zarur ekanini ko‘rsatadi. Qarorda qatag‘on qurboni bo‘lgan, hozirgacha nomlari aniqlanmagan, taqdiri o‘rganilmagan yurtdoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ularga doir arxiv hujjatlarini o‘rganish orqali yurt fidoyilarining ayanchli, lekin qahramonona taqdirini ro‘y-rost ochib berishdek kechiktirib bo‘lmaydigan xayrli ishlarni amalga oshirish o‘ta dolzarb ekanligiga alohida urg‘u berilgan.

Ma’lumki, jadidlar dastlab mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini teran anglab, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushungan holda Vatan ravnaqi, millat rivoji uchun bel bog‘lab harakat qilganlar. Ular turli mamlakatlardagi madaniyat va ta’lim taraqqiyotini ko‘rgan va bunday islohotlarni o‘tkazish zaruratini nafaqat nazariy jihatdan anglaganlar, ayni vaqtda yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar ochib, darsliklar yozib, o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga harakat qilganlar. Shunday buyuk darg‘alardan biri Said Abdurashidovich Ahroriydir.

Material va metodlar

Maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi qarorlari va farmonlari ijrosini ta’minlashga doir konsepsiya metodologik asos bo‘ldi. Moskvada chop etiladigan “Vatan” (“Родина”) jurnalida e’lon qilingan “Buxoro inqilobi” (“Бухарская революция”), “Vechernyaya Moskva” (“Вечерняя Москва”) gazetasidagi “Расстрельные списки Ваганковские кладбище” nomli maqolalar va X.Ahrorovaning “Izlarini izlayman” kitobi hamda mavzuga doir boshqa ilmiy maqola va risolalar tahlil qilindi, ulardan iqtiboslar olindi. Keng ko‘lamdagi materiallar O‘zbekiston

Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarni o‘rganish orqali topildi va ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Maqolada tarixiylik, obyektivlik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik, analiz va sintez, aniq tarixiy sharoitda raqam va dalillarga tayanish kabi metod hamda usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Said Ahroriy shaxsi haqidagi birlamchi xabar taniqli olim, professor Farhod Qosimov va Bahodir Ergashevning “Buxoro inqilobi” nomli maqolasida berilgan edi. Mazkur maqola Moskvada chop etiladigan “Vatan” (“Родина”) jurnalining 1989-yil 11-sonida e’lon qilingan. Maqolada qayd etilishicha: “O‘zbekiston Jumhuriyatining birinchi raisi bo‘lgan Xo‘jayevdan tashqari 1920-yil sentyabrdagi inqilobga aloqador bo‘lgan ko‘plab kishilar Stalin davri qatliomiga giriftor etildi, turmaga tashlandi, lagerlarga surgun qilindi. Ular orasida Buxoro Kompartiyasining birinchi raisi Najib Husanov (*1937-yil 13-aprelda otib tashlangan)*, 1923-yilda xuddi shu lavozimda ishlagan Abdullo Rahimboyev *(Tojikiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi, Buxoro kompartiyasi kotibi, 1938-yil 7-mayda Butovoda o‘limga hukm qilingan*), O‘zbekistonning birinchi Moliya Xalq komissari Qori Yo‘ldosh Po‘latov (*BXSRning asoschilaridan biri, 1937-yil 11-iyulda NKVD tomonidan o‘n yillik qamoq jazosiga hukm qilingan, jazoni Gulag lagerlarida o‘tagan. 1949-yilda qayta hibsga olinib, yana qamoqqa tashlangan. U 1956-yilda ozodlikka chiqdi. 1957-yil 1-iyulda reabilitatsiya qilingan),* professorlar Abdurauf Fitrat (O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori, 1938-yil 4-oktyabr kuni Toshkentda otib o‘ldirilgan), Muso Saidjonov *(Buxorodagi jadidchilik harakatining namoyandasi, ma’rifatparvar; tarixchi, sharqshunos va manbashunos olim, arxeolog-professor. 1937-yil 14-oktyabrda otib tashlangan)* va Abbos Aliyev *(Buxoro komsomolining birinchi kotibi bo‘lgan. Buxoro xalq ta’limi xalq komissarining o‘rinbosari bo‘lib ishlagan. “Ozod Buxoro“, “Buxoro haqiqati“ gazetalarida muharrir, 1924–1927-yillarda Tojikiston ASSR Xalq ta’limi xalq komissari bo‘lgan. Stalinobod, Frunzedagi Pedagogika instituti, Dnepropetrovsk davlat universiteti, Orjonikidze nomidagi pedagogika institutida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1954-yilda Olmaotaga ko‘chgan. 1958-yil 16-yanvarda Olmaotada vafot etgan)*, o‘sha davrning taniqli adabiyot namoyandalari Said Ahroriy va Ahmadjon Abdusaidov (Hamdiy) (*Buxorodagi jadidchilik harakatining namoyandasi, ma’rifatparvar; adabiyotshunos va manbashunos olim, 1937-yil 14-oktyabrda otib tashlangan)*, O‘zbekistonning taniqli partiya va sovet xodimlaridan Abdurahim Yusufzoda *(davlat va jamoat arbobi, diplomant, 1937-yil 14-*oktyabr*da otib tashlangan*), Rahmatulla Muzaffarov (*jadid, ma’rifatparvar, davlat va jamoat arbobi, 1937-yil 14-oktyabrda otib tashlangan)*, Otaxo‘ja Po‘latxo‘jayev *(davlat va jamoat arbobi, 1937-yil 14-oktyabrda otib tashlangan*) va ko‘plab boshqa o‘rtoqlar bor edi” [2. B. 31–38].

1990-yil boshlarida “Vatan” (“Родина”) jurnalini tasodifan varaqlab ko‘rgan taniqli tarjimon, jurnalist Xolida Ahrorovaning ko‘zi “Buxoro inqilobi” (“Бухарская революция”) deb nomlangan maqolaga tushadi. Bu haqda u keyinroq quyidagilarni yozadi: “Tonggacha mijja qoqmadim va ariza yozib, Jumhuriyat Davlat Xavfsizlik Qo‘mitasiga eltdim... biroq biron xabar topishimga ishonchim yo‘q edi. Ha deganda javob kelavermagach, ariza yo‘llaganim idoraga bordim. Ichkaridan bir kishi chiqib, o‘zini Vadim Aleksandrovich Zubanov deb tanishtirdi, alohida bir xonaga boshlab kirdi, qo‘limga bir suvrat (dadamning hibsga olingan paytidagi suvrati) va bir varaq qog‘oz tutqazdi. Mana o‘sha qog‘oz: tepasiga O‘zbekiston SSR Davlat Gerbi tushirilgan bir varaq oq qog‘oz betida O‘zSSR Davlat Xavfsizligi Qo‘mitasi, 1990-yilning 11-apreli № 10/3090 degan yozuv.

“Hurmatli Xolida Saidovna.

Sizning otangiz Said Abdurashidovich Ahroriy, 1895-yilda Turkiyada tug‘ilgan, qamalgunga qadar Samarqand Moliya-iqtisod texnikumida o‘qituvchilik qilgan, 1930-yilning 12-noyabrida hibsga olingan.

SSSR Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi Kollegiyasi Said Abdurashidovich Ahroriyni RSFSR Jinoyat Majmuasining 58–4 moddasi bilan (Sovetlarga qarshi tashviqot va targ‘ibot uchun) oliy jazoga – otuvga hukm etgan. Hukm 1931-yilning 25-aprelida Moskva shahrida ijro etilgan. Dafn etilgan joyi noma’lum.

O‘zbekiston SSR Oliy Sudining 1957-yil 5-sentyabridagi 216/N ajrimi bilan SSSR Birlashgan Bosh Siyosiy Boshqarmasi Kollegiyasining 1931-yil 25-aprelidagi Said Abdurashidovich Ahroriyga doir ishi to‘xtatilib, uning pok nomi o‘limidan so‘ng tiklandi...”.

Qo‘limga tekkan javobdan men otam haqida shu choqqacha sira ham bilmagan ko‘p ma’lumotlardan xabar topdim: otamning qayerda va qachon tug‘ilganliklarini, qayerda va kim bo‘lib xizmat qilganliklarini, kim tarafdan va qanday jazoga mahkum etilganliklarini, otib yuborilganliklarini, 1957-yilda ishi qayta ko‘rilib, oqlanganliklarini bildim” [3. B. 11–12].

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Muhammad Said Abdurashidxo‘ja o‘g‘li Ahroriy 1895-yilda Makka shahrida tavallud topgan. Uning otasi asli xo‘jand-

lik bo‘lib, Turkiston ruslar tomonidan zabt etilgach, ota-onasi Makkaga, undan Turkiyaning Istanbul shahriga ko‘chib borgan. Said Ahroriy Istanbul harbiy gimnaziyasida tahsil olgan. 1911–1912-yillarda Istanbulda “Turon ta’mimi atfol” jamiyatida mas’ul kotib bo‘lgan. 1912-yilda Turkiyaga tashrif buyurgan Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan uchrashadi. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati ostida ezilgan turk xalqlari birlashib, harakatlarini uyg‘unlashtirib, ozodlik uchun kurashmoq joiz degan qarorga keladilar, g‘oyalarini amalga oshirish uchun Turkiyadan ona yurtga – Turkistonga kelishni afzal bildilar. Shu orada Said Ahroriy birinchi jahon urushiga safarbar qilinadi, Dardanel va Galiyadagi janglarda ishtirok etadi. Ruslar tomonidan asirga olinib, 1916–1917-yillarda Krasnoyarskdagi harbiy asirlar lagerida tutqunlikda turadi. 1917-yilda u yerdan qochib, 1918-yil fevralda Toshkentga keladi va otasining oshnasi, Qashqar mahallalik katta boy Tojixo‘janikida bir oydan ortiq yashaydi. Bu vaqt orasida u boylar va ulamolar vakillari – Muhammad Aminbek Xudoyorxonov, Tojixo‘jayev, Orifxo‘jaboy, To‘lagan oxun, Muxtorxon A’lam, Isaxon A’lam (Saidning otasi do‘stlari) Saidni qurshab, unga o‘z ta’sirlarini o‘tkazmoqchi bo‘lishadi. Ular jadidlar, yoshlar va turli islohotlarga qarshi ekanliklarini anglagan Said ularga qo‘shilmaydi va 1918-yil bahorida Xo‘jandga, amakisi Valixonbobonikiga boradi. Biroq u yerda amakivachchasi Abduvohid Valixonboboyev uning asirlikdan qochgani, hujjati yo‘qligini eshitgach, qo‘rqib ketadi va darhol jo‘nab ketishi kerakligini aytadi. Muhammad Said Toshkentga yo‘l oladi va yo‘lda G‘ozi Olim Yunusovni uchratadi, uning taklifi bilan Samarqandga keladi. Samarqandda ayni olatasir to‘polon paytlari edi: inqilobchi yosh buxoroliklar Kolesovning xiyonati tufayli qochib ketishgandi (ular orasida Saidning eski qadrdonlari – Otaxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Fitrat bor edi). Bir tarafdan inqilobchi yosh buxoroliklar och, bir burda non uchun har qanday mehnatga rozi bo‘lgan paytlar, ikkinchi tarafdan “Turk qadam markazi” uyushmasi a’zolari (Muhammad Amin Afandizoda rahbarligida) asosiy rol o‘ynashga harakat qilishardi. Uchinchi tarafdan esa bolsheviklar Samarqandda monarxiya jandarmeriyasining sobiq josusi Hoji Safo Juraboyevni muxtor hokim qilib belgilagandilar.

“Turk o‘chog‘i” a’zosi Muhammad Said va “Ittihodi taraqqiy” a’zosi G‘ozi Olim Yunusov o‘sha vaqtdagi vaziyatni quyidagicha tavsiflaydilar: “Hozirgi kunda hech qanday jadid tashkilotlari bilan birlashib ish olib borish imkoni yo‘q, qolgan turklar zaif, o‘zlari ham xatarda. Fitrat Buxoroda mag‘lubiyatga yo‘liqib obro‘sizlanib qoldi. Munavvarqori va uning tarafdorlari muxtoriyat uchun qilingan harakatlari tufayli qoralanganlar” [3. B. 42]. Shuning uchun ham ulamolarning Saidga e’tiboridan foydalanib, vaqtincha birlashib, ular roziligi va yordami bilan “Turk o‘chog‘i” uyushmasi tashkil etadilar. “Turk o‘chog‘i” – ijtimoiy-siyosiy va madaniy oqartuv turk tashkilotidir. Uning shiori turk millatini siyosiy-iqtisodiy va madaniy asoratdan qutqarish, haqiqiy turk madaniyatini barpo etishdir. Uning maqsadi – millatchilik bayrog‘i ostida Turkiston turkiylarini (ya’ni o‘zbeklarni) birlashtirish va ularga milliy ruh, milliy g‘oya va milliy tarbiya berishdir: Turkiston hududida istiqomat qilganlarga turkiy xalq farzandlari ekanliklarini tushuntirish va ular orasida qabilachilik adovatlari o‘rniga birdamlik va mehr-oqibat urug‘ini sochish ko‘zda tutiladi; milliy urf-odatlarga muvofiq xalqning madaniy saviyasini ko‘tarish, savdoni, dehqonchilikni, sanoatni rivojlantirish hamda turk madaniyatini barpo etish, shu yo‘l bilan turkistonlik turkiylarning moddiy qudratini oshirishni ko‘zda tutadi.

Muhammad Saidning ulamolarga, G‘ozi Olimning Xudoyorxonovlarga[1*] ta’siri o‘laroq 1918-yilning aprelida Toshkentda “Turk o‘chog‘i” tashkil etiladi. Boshda G‘ozi Olim rais, Muhammad Said sarkotib, Temurbek Xudoyorxonov g‘aznachi qilib tayinlanadi. Ulamolar jamiyati raisi To‘lagan Oxun, Muhammad Aminbek, Nuritdinbek, Islombek Xudoyorxonovlar prezidium a’zolari bo‘lib qoladilar.

Bu jamiyat ish boshlagan birinchi haftada uning huzurida ikki sinfli jadid maktabi ochiladi va Muhammad Said ixtiyoriga beriladi, may oyining oxirida esa “Toshkentda Temurbekning rasmiy muharrirligi, Muhammad Saidning siyosiy rahbarligi va adabiy tahriri ostida “Turk so‘zi” nomli haftada ikki marta chiqadigan ro‘znoma chop etiladi [4. B. 24].

Muhammad Said, Abduvahob Murodiy[2*], Fatxulla Umariy[3*], Mir Nosir (toshkentlik yirik boyning o‘g‘li), Mirhamidboy (toshkentlik yirik boy), Akmal Ikromov, A’zam Yoqub[4*] tashabbusi bilan 1918-yilning birinchi

[1*] Xudoyorxonovlar – Xudoyorxonning farzandi Muhammad Aminbekning o‘g‘illari Muhammad Nuriddinbek (1880–1935), Muhammad Temurbek (1882–1938), Said Azamatbek (1888–1938), Said Islombek (1889–1983), Mansurbek (1907–1937), qizlari Saodatxon (1892–1971), Munavvaraxon (1917–1983), Muqaddamxon (1922–1991). Barchalari mustabid tuzum tomonidan qatag‘on qilingan.

[2*] Abduvahob Murodiy – XX asr boshida Germaniyada tahsil olgan taraqqiyparvar, birinchi o‘zbek agronomi, o‘qituvchi va olim 1930-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Aksilinqilobiy tashkilot a’zosi sifatida 1931-yil 25-aprel kuni qatag‘onga uchragan.

[3*] Fatxulla Umariy – o‘zbek davlat truppasi artisti, teatrshunos olim, Moskvadagi oliy teatr maktabini tamomlagan. 1938-yilda qatag‘on qilingan.

[4*] A’zam Yoqub – jadidchilik harakati namoyandasi, ma’rifatparvar, adabiyotshunos olim, 1938-yilda qatag‘on qilingan.

sentyabrida “Vatan” maktabi binosida “Turk izchilar to‘dasi” tashkil etildi.

“Birinchi tashkiliy majlisda yuqorida sanab o‘tilgan kishilar otryad prezidiumiga kirdilar. Tashkilotning doimiy raisligiga Muhammad Said saylandi. Abduvahob Murodiy muovin, Fatxulla Umariy kotib, Mirhamid Mirsharopov xazinabon qilib saylandilar, Mirnosir, Akmal Ikromov va A’zam Yoqubiy esa a’zo bo‘ldilar.

To‘daning oldiga qo‘yilgan maqsad: 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarga milliy bayroq ostida ilm berish, ulardan mutaxassislar tayyorlash, jismoniy yetuk qilib tarbiyalashdan iborat bo‘lib, ilm olish uchun xorijga jo‘natish, san’atni rivojlantirish, milliy ruhdagi adabiyot va matbuotni barpo etish, harbiy o‘quvni yo‘lga qo‘yish va oxir-oqibatda Turkiston xalqini milliy mustaqillik uchun kurashchi qilib tarbiyalashdan iboratdir [4. B. 41].

Xolida Ahrorova o‘z asarida shunday yozadi: “Nima uchun “Izchilar to‘dasi”? “Izchi” qay ma’noda kelayapti, deb ko‘p o‘ylardim. Endilikka kelib tushunishimcha, oldinda boruvchi – razvedkachi ma’nosida bo‘lishi kerak. Demak, bu yoshlarga umid bilan qaralgan, ularning kelajagiga ishonch va umid bilan “Izchi”, ya’ni izdan boruvchi deb atashgan” [3. B. 36].

Tergovda ayblanuvchi G‘ulom Ikromov: “Izchilar to‘dasi” haqida: “Izchilar to‘dasi” eng avval tashkil etilgan uyushmalardan. Uni turk ofitseri Said afandi tashkil etgan. Lekin o‘zi turk bo‘lmasa kerak” [4. B. 234] deb ko‘rsatma bergan. To‘da panturkizm va mayda burjua ruhida ish yuritishga asoslangan. Dasturiga qaraganda, turk millatiga mansub (o‘zbek, qozoq, tatar va hokazo), o‘n sakkiz yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan, to‘da g‘oyalariga xizmat qilishga tayyor, uning dasturini qabul qilgan har qanday shaxs unga a’zo bo‘lishi mumkin. A’zolikka o‘tish badali (a’zo bo‘layotganning imkoniyatidan kelib chiqib) prezidium tarafidan belgilanadi. Kambag‘al, ishsiz, o‘qishni tugallamaganlardan a’zolik badali olinmaydi, moddiy imkoniyati yaxshiroq bo‘lganlarga soliq solinadi.

“To‘daning moddiy boyligi a’zolik badallari, qo‘ygan spektakllaridan, tomosha kechalari, sayrlar va ma’ruzalardan tushadigan tushumlar va xayr-ehsonlardan iboratdir. To‘da a’zosi savodini chiqarishga, ilm olishga, hech bo‘lmaganda bir hunar egasi bo‘lishga, har kuni jismoniy mashqlar (shu jumladan, harbiy mashg‘ulot) bilan ikki soat shug‘ullanishga, iqtisod rejimiga itoat etishga, shaxsiy hayotda o‘zgarish yasashga (ovrupolashishga), o‘zidan yuqori lavozimdagilarga (o‘quvchilar sinf rahbarlariga, zveno boshliqlariga, vzvod komandirlari va boshqalarga) itoatkor bo‘lishga, tegishli forma liboslarini ozoda qilib kiyishga e’tiborli bo‘lmog‘i joiz...” [4. B. 30].

Otryad huzurida quyidagi to‘garaklar ishlaydi:

1. Duxovoy orkestr (o‘zbeklar orasida birinchi duxovoy orkestr ana shu “Izchilar to‘dasi” tarafidan tashkil etilgandi).
2. Milliy musiqa to‘garagi.
3. Fizkultura.
4. Teatr truppasi.
5. Pedagogika kurslari.
6. Savodsizlikni tugatish kurslari.

Jadid Sa’dullaqori Shermuhamedov 1929-yilning 12-noyabr kuni Toshkentda olib borilgan tergovda: “Said afandi – sobiq turk ofitseri. Gimnastika o‘rgatardi. Mashq chog‘ida u: “Har bir turk o‘g‘loni harbiyni bilishi, dovyurak bo‘lishi kerak. Qo‘shinsiz davlat bo‘lishi mumkin emas, biz turkiy davlatimizning himoyasiga ko‘ksimizni qalqon qilmog‘imiz darkor. Buning uchun harbiy ishni bilmoq kerak”, derdi” [4. B. 31] deya ko‘rsatma beradi.

“Izchilar to‘dasi” tashkil etilishi tarixiy haqiqat edi. Chunki Turkiston xalqining noroziligi kuchayib borayotgan edi:

a) partiya diktaturasi va Turkistonning markazga siyosiy-iqtisodiy qaramligi keltirib chiqarayotgan noroziliklar;

b) paxta ekiladigan maydonlarning ko‘paytirilishi, haqning kam to‘lanishidan noroziliklar;

v) Rossiyaning markaziy rayonlaridan aholining ko‘chirib keltirilishi natijasida yerli aholi orasida ishsizlikning ko‘payib borishidan noroziliklar;

g) davlat idoralarida yerli millat kishilarini joylashtirishning imkoni bo‘lmayotganligidan noroziliklar (aholining arz-dodini tinglaydigan, tilini tushunadigan kishilar ishlashini istashadi);

d) Turkistonni milliy jumhuriyatlarga bo‘lib tashlash masalasidagi norozilik;

e) o‘qish va yozishni lotinlashtirish masalasidagi noroziliklar;

j) yer-suv islohotida yo‘l qo‘yilgan katta xatolar va yana boshqa qator masalalar yuzasidan noroziliklar [3. B. 41].

Bu achinarli holatni bartaraf etish uchun avvalo xalqni zamon talablari asosida ma’rifatli qilish, voqealarga befarqlik, loqaydlikdan chiqarish zarur edi. To‘da tez orada o‘z maqsadi yo‘lida bir qancha muvaffaqiyatlarga erishadi. Bu haqda Muhammad Said Ahroriy “Turk so‘zi” ro‘znomasining 1918-yil 2-iyun to‘rtinchi sonidagi “Turklik jarayoni” maqolasida quyidagilarni yozgan edi: “Siyosiy va iqtisodiy asoratdan qutilmoq uchun turk dunyosidagi maktab va madrasalar isloh qilindi, hamma musulmonga kitoblar har bilikdan ziyoda turkcha bo‘ldi, har narsa turklashtirildi, ya’ni milliylashtirildi” [5. B. 2].

Afsuski, bu harakatlar uzoq davom etmaydi – jamiyatning bir guruh a’zolari xonlik tarafdori, qolganlari respublika tuzumi tarafdori bo‘lib taraflarga

bo‘linib ketishi oqibatida “Turk o‘chog‘i” ham, “Turk so‘zi” ro‘znomasi ham yopiladi. Faqat “Turk o‘chog‘i” huzuridagi yigirma talabaning boshini qovushtirgan bepul maktabgina ishini davom ettiradi. Maktabda Muhammad Said ona tili, jo‘g‘rofiya, umumiy tarixdan, Abduvahob Murodiy matematika va tabiatshunoslikdan, Abdurahmon Ismoilzoda rasm va qo‘l hunaridan xizmatlari uchun haq olmay dars berishardi. Milliy ruh va milliy tarbiya bilan mashg‘ul bo‘lgan mana shu kichkinagina maktab yana bir necha oy ishini davom ettirdi, xolos.

1920-yil kuzida Said Ahroriy Buxoroga ketadi va u yerda “Yosh buxoroliklar” partiyasiga a’zo bo‘ladi [6. B. 460]. Shu yilning sentyabridan Buxoro markaziy inqilob qo‘mitasining fikr tarqatuvchisi – matbuoti “Buxoro axbori” gazetasi muharriri vazifasida xizmat qiladi. 1921-yilda muharrirlikni Abdulhamid Cho‘lponga topshirib, o‘zi Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyatining Ozarbayjondagi muxtor elchisi bo‘lib Bokuga ketadi. Said Ahroriyning qancha muddat elchi bo‘lgani va konsullikdan ketish vaqti aks etgan biror hujjat topilmadi. Faqatgina bir xufiyaning 1926-yil 8-mayda bergan ma’lumotiga ko‘ra, uning Moliya xalq komissarligidan ishdan ketgani va “Zarafshon” gazetasi tahririyatiga ishga o‘tgani haqida ma’lumotlar keltirilgan, xolos.

Said Ahroriyga tegishli hujjatlar orasida u 1929-yil 28-dekabrda hibsga olinib, tergov jarayoni ikki oydan ortiq olib borilgani va aybi isbot topmagani bois 1930-yil 10-mart kuni hibsdan chiqarib yuborilgan, avvalgi ish joyi – Samarqand moliya-iqtisod texnikumida o‘qituvchilik qilayotgani haqida ma’lumot uchraydi.

Bu vaqtda Said Ahroriy oilasi bilan Samarqand shahri Qalandarxona dahasi, Mahdum Xorazmiy mahallasi, 4-uyda yashardi [4. B. 280]. 1930-yil 12-noyabr kuni uyidan ishga ketgan Said Ahroriy bedarak yo‘qolgan, uni NKVD xodimlari ordersiz hibsga olgan. Hujjatlarni o‘rganish jarayonida ma’lum bo‘lishicha, Said Ahroriy 1930-yilning 12-noyabridan to 1931-yilning 14-fevraligacha Moskva shahrida Butirka turmasining Sharq bo‘limida qamoqda tergovsiz yotgan. Faqatgina 1931-yilning 14-fevrali kuni besh marta va 25 mart kuni yana bir marta so‘roq qilingan. Uch tergovda Akmal Ikromov bilan bo‘lgan uchrashuvlari tafsilotlari surishtiriladi, bir bor Munavvarqori bilan ko‘rishganliklari sababini aniqlashga urinishadi, so‘nggi tergovda “Izchilar to‘dasi”ga doir materiallar va Botu bilan munosabati surishtirilgan [4. B. 98].

Ayblov xulosasiga ko‘ra, Said Ahroriy intervensiya yo‘li bilan Sovet hukumatini yo‘q qilish va burjua mustaqil O‘zbekiston davlatini barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan “Milliy istiqlol” nomidagi aksilinqilobiy tashkilot tuzishda aybdor deb topilgan. 1931-yilning 25-aprelida RSFSR Jinoyat Majmuasining 58-moddasi bilan otuvga hukm etilgan va Moskva shahrida yashirin tarzda otib tashlangan.

Moskvada chiqadigan “Oqshomgi Moskva” (“Вечерная Москва”) gazetasi 1930–1940-yillarda otilib, Moskvadagi Vagankov qabristoniga yashirincha ko‘milgan odamlar ro‘yxatini 1990-yil 6-dekabrdan boshlab berib borgan. Shu gazetaning 1992-yil 25-may sonida to‘qqiz kishining ro‘yxati berilgan bo‘lib, shulardan besh nafari bizning yurtdoshlarimizdir. Ular quyidagilar:

1. Said Abdurashidovich Ahroriy.
2. Munavvarqori Abdurashidov.
3. Salimxon Tillaxonov.
4. Tangriqulhoji Maqsudov.
5. Najmitdin Sherahmedov [7. B. 4].

Muhammad Said Ahroriy qanday ishga qo‘l urmasin – u gazeta muharrirligi bo‘ladimi, davlat mahkamalaridagi rahbarlik ishlari bo‘ladimi yoki pedagogikaga doir ishlarga ixlos bilan kirishgan, xalq manfaatini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Birgina misol. Xufiya tomonidan 1927-yil 24-aprelda quyidagicha ma’lumot berilgan: “Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati Revkomi sobiq raisi, keyin Tojikiston Xalq Komissarlari Soveti raisi Mirza Abduqodir Muhitdinov chaqirtiradi-da, Said Ahroriyga deydi:

– Said afandi. Siz yaxshi odamsiz. Haqiqiy millatchi va tashkilotimiz a’zosisiz. Tashkilotimiz Sizga ishonib bir jiddiy topshiriq bermoqchi. Siz uni bajarishingiz kerak.

Said Ahroriy “bajaraman” deb so‘z berishdan avval qanday topshiriq bermoqchiliklarini so‘radi.

Muhitdinov odatda tashkilot a’zolari ichadigan qasamdan tashqari Said Ahroriyni musulmon farzandi sifatida hammasini sir tutish haqida yana alohida qasamyod qildirtiradi-da:

– Tashkilotimiz Chorjo‘y yaqinida Amudaryo ustidagi ko‘prikni portlatib yubormoqchi. Bu ishni amalga oshirishni tashkilot sizga topshiradi” [4. B. 68].

Bunga javoban Said Ahroriy, millatchi bo‘lishidan va tashkilot a’zosiligidan qat’i nazar, bu tadbirni noto‘g‘ri deb hisoblagani uchun, o‘rislarga qarshi bo‘lgani holda, bu topshiriqni bajarishga rozi emasligini aytadi, zero ko‘prik o‘rislarning puliga va o‘rislarning qo‘li bilan bunyod etilmagan, balki musulmonlarning qo‘li va mablag‘i bilan bunyod etilganini aytadi, uning fikricha, bunday qilish musulmonlarga qarshi kurashning aynan o‘zginasi bo‘lishini va bunday qilish amirning qilg‘iliklaridan ham battarligini ta’kidlaydi. Keyinchalik hech kim buni qayta tiklashni eplolmasligini, Buxoroning mablag‘i kamligini, bu ishda yolg‘iz Angliya yordam bera olishini, lekin bu – musulmonlarning o‘rislar istibdodidan qutulib, Angliyaning o‘rislarnikidan qolishmaydigan istibdodi ostida qolajagi ekanini isbotlashga urinadi. Shun-

dan keyin Muhitdinov Said Ahroriyga tashkilot a'zosi sifatida topshiriqni bajarishi joizligini aytib, taklifini takrorlaydi, topshiriqni bajarmagan tashkilot a'zosi tashkilotdan chiqarilishi va keyinchalik yo'qotilishini eslatadi. Said Ahroriy bu topshiriqning noto'g'riligini, milliy tashkilotning asl niyati bunday emasligini aytib, topshiriqni bajarishdan ikkinchi bor bosh tortadi [3. B. 49].

Bundan tashqari, millatchi bo'lgani holda bunday topshiriqni bajo keltirmasligi ustiga, mabodo boshqa birov tarafidan yoki hatto Angliya tarafidan ko'prik portlatiladigan bo'lsa, bu to'g'rida o'zi Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati hokimiyatigagina emas, balki RSFSR vakili va alohida bo'limga bildirajagini, butun mas'uliyat Muhitdinov zimmasiga tushajagini aytadi.

Muhammad Said Ahroriy o'n besh yoshida Istanbuldagi gimnaziya talabasi chog'idan Turkistonni istibdod zulmidan ozod etishga bel bog'lagan edi. Bu maqsad yo'lida u "Turk o'chog'i" uyushmasi tashkilotchisi va rahbari, "Turk so'zi" gazetasining adabiy muharriri, "Vatan" nomli maktab tashkilotchisi va rahbari, "Izchilar to'dasi" uyushmasi tashkilotchisi va rahbari, "Yosh buxoroliklar" qo'mitasi sarkotibi, Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati davlat nashriyotining direktori, "Buxoro axbori" gazetasi muharriri, Buxoroda chiqqan "Yosh leninchi" gazetasi tahririyati a'zosi, Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyatining Ozarbayjondagi muxtor elchisi, "Ozod Buxoro" gazetasi muharriri o'rinbosari, Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyati Nozirlar Kengashi apparati xodimi, Moliya xalq komissarligi xodimi, "Zarafshon" gazetasi xodimi, Samarqand moliya-iqtisod texnikumi o'qituvchisi sifatida milliy mustaqillik uchun goh oshkora, goh yashirin tarzda kurashdi.

"Biz milliy xususiyat va istiqlolimizni muhofaza qilib yashamoq istagimizga va bu orzu muqaddasimizga kuchimiz bilan, qattiq bir shiddat bilan yopishib, kerak bo'ladigan choralarga bosh urganimizga darhol tevaragimizdagilarning joni siqiladi. Binobarin, har tarafimizdan shiddatli tovushlar va shiddatli e'tirozlar bosh chiqarib, bizni eski holatimizga qaytarmoqchi bo'lib qo'rqita boshlaydilar. O'zlari uchun fidokorlik va qahramonlik deb qabul qilingan bu harakatlar tabdil qilinib, boshga ko'tarilgan bu hislar bizning uchun bir aqlsizlik va bir hurmatsizlik deb hukm beriladir. Biz yashamoq istaymiz va ular bizning mahv bo'lishimizni hamda o'z-o'zimizni o'z qo'limiz bilan yo'q qilishimizni xohlaydilar.

Chunki o'z ko'zimizni o'zimizga kavlatmoq osonroq bir ish, yaqinroq bir yo'ldir, ham chiqimsiz bir suratda va qonsiz bir baho bilan maydonga keladilar. Nikolay vaqtida Turkistonning bus-butun mahv va parishon bo'lganini hamma dunyo bilgan edi" [8. B. 1] deb yozgan edi Muhammad Said Ahroriy.

Said Ahroriy jurnalist sifatida, qalamkash pedagog sifatida turli dolzarb masalalarda o'nlab maqolalar yozdi. Bu maqolalarni o'qigan inson uning teran fikr egasi, faoliyat doirasi nihoyatda keng ekanligini anglaydi. Faoliyati davomida teatr sohasini ham nazardan chetga qoldirmadi. Uning "Qizil askar" dramasi 1929- yillarda Samarqand shahrida Hamza nomidagi drama teatrida sahnalashtirilgan. Uning she'rlari o'sha mudhish qatag'on manzarasini ko'z oldingizga keltiradi. 1930-yil 26-yanvarda Samarqandda hibsxonada yozgan "Sog'inish" she'ridan parcha:

Dalalar, qirlar,
Sog'indim sizni,
Ko'rkam hayotga
Eltuvchi izni.
Usandim-bezdim,
Tor ko'chalardan,
Motamli unsiz.
Kar kechalardan.
Qaqshagan ko'nglim –
Yayramoq istar,
Ufqimda doim
Bir shafaq istar [9. B. 40].

Said Ahroriy muharrirlik qilgan davrda (1920-yil 9-sentyabr – 1921-yil 30-iyun) "Buxoro axbori" bir oyda 4–5 marta, ya'ni hafta davomida bir marta chop etib turilgan. Gazeta chop etiladigan haftaning aniq, qat'iy belgilangan kuni mavjud bo'lmay, ba'zi haftada dushanba, ba'zan chorshanba, ba'zi haftalarda esa juma kunlariga to'g'ri kelgan. Bosh muharrirning tashkilotchilik salohiyati va xizmati shundaki, u gazeta atrofida muxbir hamda matbaachi mutaxassislarni to'pladi, ular tarkibini shakllantirdi. BXSRning chekka viloyatlaridan xabar to'plab, gazetaga yuborib turadigan qishloq muxbirlari guruhini ham vujudga keltirdi. "Buxoro axbori" gazetasining ommaviyligi va o'qishli bo'lishini ta'minlashda bosh muharrir Said Ahroriyning dolzarb muammolarga bag'ishlangan o'nlab maqola va badiiy ijod namunalari muhim rol o'ynadi. U tahririyatni boshqarish bilan birga gazetada bosh muharrirlik qilgan keyingi vakillardan o'zining maqolanavisligi hamda yuksak jurnalistik mahorati bilan ajralib turgan. Said Ahroriy keyinchalik boshqa mas'ul vazifalarda faoliyat yuritganiga qaramay, "Ozod Buxoro" gazetasi sahifalarida davrning dolzarb muammolariga bag'ishlangan salmoqli maqolalari chop etildi. Uning maqolalarida BXSRdagi ijtimoiy muammolarning muhim bo'g'ini bo'lgan xotin-qizlar masalasi, xalq salomatligi muammolari, maorif va madaniyatga tegishli bo'lgan vazifalar hamda hukumat organlari ishini takomillashtirish bi-

lan bog‘liq jihatlar qamrab olingan. Said Ahroriyning “Qish keldi, tovushsizlar qotmasin” nomli maqolasida BXSRdagi kishilarning turmush tarzi, ijtimoiy ahvoli bayon qilinadi. Mamlakatda 1923-yil qishi qattiq kelganligi, badavlat xonadonlarda, korxonalarda yashayotgan uy-joysiz, iqtisodiy nochor ahvolda bo‘lgan yetim-yesir o‘g‘il va qizlar ancha foizni tashkil qilishini yozar ekan, Said Ahroriy bu masalaga hukumat idoralarining diqqatini jalb etadi. “Tovushsizlar (ya’ni xo‘jayin tomonidan quvg‘inga uchramaslik uchun tovush chiqarishga jur’at qilolmaydiganlar) Sharqdagi mamlakatlarda faqat ovqat uchungina xizmat qilib turmaydilar, balki ularga ayrim moyana berilmog‘i bilan barobar yiliga ikki marotaba yozlik va qishlik kiyim beriladi, o‘qitiladi, uylantiriladur”, – deb yozgan muallif [10. B. 175].

O‘shanda Buxoro kommunistik partiyasi targ‘ibot-tashviqot shubasi mudiri Abbos Aliyev “Ozod Buxoro” gazetasida Said Ahroriy takliflariga qarshi maqola e’lon qilib, muallifni millatchilikda aybladi. Natijada ikki o‘rtadagi kurash keskin tus olib nafaqat Buxoro, butun Turkistonda bu masalada siyosiy munozaralar boshlandi. Fayzulla Xo‘jayev bir necha yig‘ilishlarda so‘zga chiqib, Said Ahroriyning fikrlarini to‘la tasdiqlaydi. Bu esa ehtiroslarning yanada kuchayishiga sababchi bo‘ldi. Buxoro kompartiyasi markaziy qo‘mitasida birinchi rahbar lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Mavlonbekov yig‘ilishlarning birida Fayzulla Xo‘jayevni millatchilarni qo‘llab-quvvatlashda aybladi. Bunga javoban Fayzulla Xo‘jayev so‘zga chiqib Mavlonbekovni savodsizlikda ayblab, Said Ahroriyni milliy istiqlol targ‘ibotchisi deb atadi [11. B. 27–28].

Muhammad Said Turkiston xalqining azob-uqubatlarini anglab yetib, uni bu ko‘rgiliklardan qutqarish yo‘llarini izlar edi. Said Ahroriy kuyib-yonib quyidagilarni yozadi: “Hurriyatimizni talab qilganimiz bir qabohat, muxtoriyatimizni qo‘ldan bermasligimiz bir qabohat, xorijdan o‘zimizga kerakli ta’lim va ustodlarni keltirishimiz qabohat, nihoyat, katta quvvat paydo qilmoqqa boshlashimiz hammadan katta bir qabohat bo‘lib ko‘rinadir. Chunki endi har kimga aldanib yurmaymiz... Endi biz ham boshqa millatlar orasida bir mavqe tutmoq uchun barcha ovozimizni ko‘tarib haqqimizni tilaymiz” [3. B. 66].

1957-yil 10-iyunda tekshiruv komissiyasining maxsus xulosasi tayyorlanadi, bir necha oy hujjatlar qayta-qayta o‘rganiladi va nihoyat O‘zbekiston SSR Oliy Sudining 1957-yil 5-sentyabrdagi 216/N ajrimi bilan Said Abdurashidovich Ahroriy oqlanadi [4. B. 349].

Mustabid sovet rejimi Said Ahroriyga ma’rifatparvarlik faoliyatida muntazam ish olib borish imkonini bermadi. Uning “Vatan” maktabidagi o‘qituvchilik faoliyati ham “Izchi”lar to‘dasidagi g‘ayrat-shijoati ham, qator gazetalar chiqarish bilan charog‘on bo‘lgan hayoti ham bir-ikki yildan, nari borsa uch yildan uzoqqa cho‘zilmadi. S.Ahroriy singari otash-qalb kishilarning xalqni uyg‘otish yo‘lidagi faoliyati aksilsho‘roviy harakat deb baholandi va ular nohaq qatag‘on domiga tortildi. Chunki Said Ahroriy dunyoqarashi keng, matbaachilik tajribasiga ega, qalami o‘tkir noshirlardan bo‘lgan. Shuning uchun Fayzulla Xo‘jayev uni gazeta ishini yo‘lga qo‘yish uchun Buxoroga taklif qilgan. Said Ahroriy gazeta uchun maqolalar tanlash, uni o‘qimishli, xalq ruhiga yaqin bo‘lishini ta’minlashda o‘z qobiliyat va iqtidorini ayamadi. Gazeta Buxoro Respublikasi hayotining barcha jabhalarini yoritishga qaratilgan munozara va mushohadaga chorlovchi, tanqidiy tavsifdagi maqolalar e’lon qilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Said Ahroriy nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira olgan tajribali siyosatchi edi. U jadidlarning haqiqiy sarvaridir, uning faoliyati va adabiy merosi esa kelajakda keng omma uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 19 июндаги “Сиёсий қатағон қурбони бўлган юртдошларимиз ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш, тарғиб этиш ҳамда уларнинг хотирасини абадийлаштириш борасидаги ишларни кенгайтириш тўғрисида” ги қарори [Интернет манба]. URL: https://lex.uz/docs/7027939 (Мурожаат этилган сана: 09.08.2024)

2. Бухарская революция // Журнал “Родина”, 1989. – №11. – С. 31–38.

3. *Аҳророва Ҳ.* Истиқлол фидойилари. /Изларини излайман. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 128 б.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi 33391-ish, 6-jild, 41-varaq

5. *Аҳрорий С.* Турклик жараёни //“Турк сўзи” газетаси (араб имлосида) 1918 йил 2 июнь.

6. *Inoyatov S., Rajabov Q.* Buxoro tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 460 b.

7. Расстрельные списки Ваганковские кладбище. // Газета «Вечерняя Москва». 1992 год 25 мая
8. *Муҳаммад С.* Яшамоқ орзуси // “Турк сўзи” газетаси (араб имлосида) 1918 йил. – № 5-6, 7.
9. *Аҳрорий С*. Танланган асарлари (Истиқлол қаҳрамонлари: Тўплаб нашрга тайёрловчи Ҳолида Аҳророва)). – Тошкент: Маънавият, 2001. – 100 б.
10. *Раҳмонов К*. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924-йиллар). – Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012. – 208 б.
11. *Наимов Н*. Бухоро жадидлари. – Тошкент: Фан, 2000. – 118 б.
12. *Mirziyoyev Sh*. Agar ular qatag‘on qilinmaganida, buyuk ishlarni amalga oshirgan bo‘lar edi [Internet manba]. URL: http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-agar-ular-qatagon-qilinmaganida-buyuk-ishlarni-amalga-oshirgan-bolar-edi (Murojaat etilgan sana: 01.09.2020)
13. *Маҳмудова С*. Ирода ва матонат тимсоли (Холида Аҳророва) *// Жаҳон адабиёти,* 2015. – № 3. – Б. 125–129.

THE ACTIVITY AND FATE OF JADID SAID AHRARY AND THE «IZCHI» GANG

U.K.Ubaydullayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 12-20.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: Jadid, enlightener, intellectuals, politics, ideology, “Milliy Ittid”, “Milliy Istiklol”, “Izchi”, organizations, national opposition, Said Ahrari.

The article studies the activities and fate of Jadid Said Ahrari and the “Izchi” gang based on primary archival documents. The study consistently covers the details of Said Ahrari’s arrival from Istanbul to Tashkent, the organization of the Jadid school called “Vatan”, the “Izchi” gang, and his activities as an active organizer, skilled teacher, editor, ambassador, playwright, poet, and writer in the cause of the Turkestan people’s national independence. It is revealed that he was accused and repressed as a member of the “Milliy Istiklol” association. The article also provides information about the research of Said Ahrari’s daughter, a well-known translator and journalist, Khalida Ahrarova, on the activities of the independence fighters.

Said Ahrari, as a journalist and a writer, wrote dozens of articles on various topical issues. Anyone who reads these articles will understand that he is a deep thinker and has a very wide range of activities. Throughout his career, he did not ignore the theater. His drama “The Red Soldier” was staged in 1929 at the Hamza Drama Theater in Samarkand. His poems bring to mind the terrible scenes of repression. Said Ahrari, as a journalist and a writer, wrote dozens of articles on various topical issues. Anyone who reads these articles will understand that he is a deep thinker and has a very wide range of activities. Throughout his career, he did not ignore the theater. His drama “The Red Soldier” was staged in 1929 at the Hamza Drama Theater in Samarkand. His poems bring to mind the terrible scenes of repression.

The head of the propaganda department of the Bukhara Communist Party, Abbas Aliyev, published an article in the newspaper “Ozod Bukhara” against the proposals of Said Ahrari, accusing the author of nationalism. As a result, the struggle between the two intensified, and political debates began on this issue not only in Bukhara, but throughout Turkestan. Faizulla Khodjaev spoke at several meetings and fully confirmed Said Ahrori’s views. This led to further intensification of passions. Mavlonbekov, who was the first leader of the Central Committee of the Bukhara Communist Party, accused Faizulla Khodjaev of supporting nationalists at one of the meetings. In response, Faizulla Khodjaev spoke, accused Mavlonbekov of illiteracy, and called Said Ahrari a propagandist of national independence.

There was no doubt that they would accomplish great things, because the activities of their children, the successors of the most talented people, can serve as an example of this. Said Ahrari’s daughter, the famous translator and journalist Kholida Ahrorova, devoted her entire life, knowledge, and creativity, primarily to the magazine “Saodat”. For many years,

as deputy editor-in-chief, she earned the respect of our people. Honored Worker of Culture of Uzbekistan Kholida Ahrorova spent her entire life, surpassing her busy work in the magazine, glorifying the art of translation at the expense of sleep and rest.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyundagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 19, 2024 “On expanding the work on studying, promoting and perpetuating the memory of our compatriots who were victims of political repression”]. [Online]. URL: https://lex.uz/docs/7027939 (Date of Access: 09.08.2024)

2. Buxarskaya revolyutsiya. *Jurnal “Rodina”,* No 11. Pp. 31-38.

3. Ahrorova, H.(1998). *Istiqlol fidoyilari* [Independence devotees]. In: Izlarini izlayman [I look for traces]. Tashkent: Shark.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi [Archive of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan]. Case -33391 volume - 6, page 41.

5. Ahrari, S. (1918) Turklik jarayoni [The Process of Turkism]. *“Turk so‘zi” gazetasi* ((in Arabic spelling) June 2.

6. Inoyatov, S,, Rajabov, Q. (2015) *Buxoro tarixi* [History of Bukhara]. Tashkent: Tafakkur.

7. (1992) Rasstrel’nye spiski Vagankovskie kladbishche [Execution lists Vagankovskie cemetery]. Gazeta “Vechernyaya Moskva”. May 25.

8. Muhammad, S. (1918) Yashamoq orzusi [The Dream of Living]. “Turk so‘zi” gazetasi (in Arabic spelling). No 5-6 and 7.

9. Ahrari, S. (2001) *Tanlangan asarlar* [Selected Works]. Tashkent: Ma’naviyat.

10. Rahmonov, K (2012). Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida [The history of the Bukhara People’s Soviet Republic in the press]. Tashkent: “ABU MATBUOT – KONSALT”.

11. Naimov, N. (2000). *Buxoro jadidlari* [Jadids of Bukhara]. Tashkent: Fan.

12. Mirziyoyev, Sh. (2020) Agar ular qatag‘on qilinmaganida, buyuk ishlarni amalga oshirgan bo‘lar edi [If they had not been repressed, they would have accomplished great things]. [Online]. URL: http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-agar-ular-qatagon-qilinmaganida-buyuk-ishlarni-amalga-oshirgan-bolar-edi (Date of Access: 01.09.2023)

13.Mahmudova, S. (2015) Iroda va matonat timsoli (Xolida Ahrorova) [The symbol of will and perseverance (Kholida Ahrorova)]. *Jahon adabiyoti*. No 3. Pp. 125-129.

Muallif haqida ma’lumot:

UBAYDULLAYEV O‘ktamjon Qodirovich – tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: uktamjon1969@gmail.com